

O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY IMKONIYATLARI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich

*Yangi Asr Universiteti Akademik bo'lim boshligi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, prof.v.b
m.azizbek14051983@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning hududiy imkoniyatlari Jizzax viloyati misolida tahlil etiladi. Jizzax viloyatining ekoturistik salohiyati, mavjud infratuzilma holati va uni rivojlantirish omillari baholandi. Maqolada ekoturizmni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Viloyatda barqaror turizmni rivojlantirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *ekoturizm, hududiy rivojlanish, turizm salohiyati, Jizzax viloyati, tabiiy resurslar, rekreatsion hududlar, biologik xilma-xillik, barqaror turizm, turizm infratuzilmasi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.*

KIRISH QISMI

Hozirgi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan ekoturizm yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi boy tabiiy-landshaft resurslari, noyob biologik xilma-xilligi hamda turli iqlim zonalarini mavjud hududlari bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Shu nuqtai nazardan, Jizzax viloyati o'zining rang-barang tabiiy resurslari, tog' va cho'l landshaftlari, qo'riqlanadigan hududlari hamda rekreatsion imkoniyatlari bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun istiqbolli hududlardan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'tganyili dekabr oyida viloyatga tashrifida turizmni rivojlantirish masalasiga to'xtalib Baxmal va Zomin tumanlaridagi tog'li hududlarni yagona turizm halqasiga birlashtirish orqali yuzlab servis ob'ektlarini ishga tushirish, minglab odamlarni ishli qilish, turizm eksportini karrasiga oshirish mumkinligi ta'kidlab o'tdi[1].

Shuningdek, qisqa fursatda Zomin, Forish, Arnasoy tumanlari va Jizzax shahrida 2 milliard dollarlik 500 dan ziyod turizm hamda servis obyektlari ish boshladi.



Arnasoy va Zominda 300 million dollar hisobiga 12 oy davomida to'liq ishlaydigan kurort zonalari ishga tushgani, ularda aeroportlar barpo etilgani natijasida Jizzax eng jozibador turistik marshrutlardan biriga aylanganligi haqida ma'lumot berildi.

Tadqiqotchi Sodiqov Abdusattor viloyatda mavjud turistik salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro umum mavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-kongilochar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etishda Zomin milliy tabiat bog'ining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tadi[5]. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning hududiy imkoniyatlarini Jizzax viloyati misolida tahlil qilish, hududning ekoturistik salohiyatini baholash hamda uni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, mavjud turistik resurslari, infratuzilma holati hamda ekoturizmni rivojlantirishga hizmat qiladi.

Asosiy qism: Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, Shimoli-sharqda Qozog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubiy-g'arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilann chegaradosh[3]. Jizzax viloyati o'zining turistik resurslari bo'yicha Markaziy Osiyoda oldingi, o'rinlarni egallab turistlarni jalb qiluvchi asosiy omil bu uning maftunkor tabiati tog'li hududda joylashgan yuqorida aytib o'tigan hududlarining ob havosi yilning to'rt faslida dam olish va ekoturizmni rivojlantirish uchun ajralib turadi.

Viloyatining Zomin tumani purviqor tog'lari, go'zal tabiati bilan mashhur. Dengiz sathidan 3000 metr balandlikda joylashgan tog'lar bag'rida yam-yashil archazorlar, zilol suvli buloqlar, shifobaxsh g'iyohlar va o'simliklar sayyohlar e'tiborini tortmay qolmaydi. Bu yerda umumiy maydoni 26 ming 840 gektarga teng Davlat qo'riqxonasi, 24 ming 110 gektar maydondagi Xalq bog'i noyob tog' ekotizimlarni saqlash, tiklash va tadqiq etish imkonini berishidan tashqari tabiiy shifoxona sanaladi.

Unda ekosayyohlar uchun qulay shart-sharoit yaratilgan. O'n ikki ming gektarga yaqin maydonni egallagan eng yirik va tabiiy o'rmonlar Zomin ekoturistik manzilgoh sifatida ichki va tashqi turizmga muhim ahamiyatga ega. Tog' yonbag'irlari go'zal daralar bilan o'ralgan. Daryo va soy bo'ylarida oqteraklar, majnuntollar va jiydalardan iborat to'qayzorlarga ekoturistik mashrutlar doimiy olib borilmoqda[4].

Zomin davlat qo'riqxonasi qo'riqxonasi tabiiy ekotizimlarni, noyob o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash va o'rganish maqsadida tashkil etilgan. Turkiston tog'larining shimoliy tizmalarida joylashgan, bir-biri bilan chegaradosh Zomin Davlat qo'riqxonasi Zomin va Baxmal tumanlari hududida, 26840 ga maydonga ega bo'lib, 1960 yil tashkil qilingan. 1994 yil 7 oktyabrdagi "Zomin davlat qo'riqxonasi hududiy kengaytirish va uni qo'riqlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan qo'riqxonasi hududining aniq chegaralari belgilab chiqilgan[2].



Zomin milliy bog'i va Zomin davlat qo'riqxonasi Piyoda yurish (trekking) yo'nalishlarini, Tog' ekotizimlarini kuzatish va tabiatni o'rganish uchun maxsus ekskursiyalar hamda ekologik toza dam olish maskanlarini barpo etish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Zomin milliy bog'i va Zomin davlat qo'riqxonasi noyob flora va fauna turlari bilan mashhur bo'lib, ekologik sayohatlar va dam olish uchun qulay maskanlardir. Zomin va Baxmal bo'limlaridagi ekoturistik marshrut "Boyqo'ng'ir tabiati" ekoturistik marshrut (Baxmal bo'limi qo'riqxonada joylashgan), "Qirq qiz" ekoturistik marshrut (Zomin bo'limi qo'riqlanma hududida joylashgan), "Chortangi darasi" ekoturistik marshrut (qo'riqxonada joylashgan), "Ko'lsay tabiati" ekoturistik marshrut (qo'riqxonada joylashgan) va "Qoshqa suv ko'zatuv markazi" ekoturistik marshrut (Zomin bo'limi qo'riqlanma hududida joylashgan). O'simliklar va hayvonlar hayotini ko'zdatish hamda qo'riqxonaning tik jarliklari, tog'larning pastki qismi, o'rta va baland qismlarini, qorli tog' cho'qqilari va quyuc archazorlarni ko'rish mumkin. Qo'riqxonada atrofida yaqin mehmonxona: "Wyndham garden hotel zaamin" mehmonxonasi hududdan 5 km masofada Zomin tumanida joylashgan.

Ekoturizmni rivojida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi muhim ahamiyatga ega. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi viloyatning shimolida joylashgan ushbu ko'llar tizimi hududning tabiiy go'zalligiga o'ziga xoslik qo'shadi va turli xil suv qushlari uchun muhim yashash joyidir. Bu ekoturistik obyekt Jizzax - Navoiy avtomobil yo'li bo'yida joylashganligini hisobga olsak, kelajakda Nurota tog' yong'oqzor qo'riqxonasi negizida Milliy bog' barpo etilishi ushbu hududning yo'l va boshqa kommunikatsiya sohasini yaxshilash, turistik infratizimlarni barpo etish orqali hududda tog' klasterlarini tashkil etishga ham imkoniyat yaratiladi. Statistik ma'lumotga ko'ra, Aydar-Arnasoy suv havzalaridan 1992 yilda yil davomida 1373 tonna baliq tutilgan[6]. Hozirgi kunda Aydar Arnasoy ko'llar tizimidan o'rtacha 760 tonnadan - 2000 tonnagacha baliq ovlanadi[7]. Bu hududda sayyohlarning baliq ovlash jarayonlarida bevosita ishtirok etishi, uni kuzatishi ekoturizmni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Bevosita sayoxat Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ekoturizm maqsadida suv va baliq resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ko'paytirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlar, ilmiy-amaliy xulosalar ekoturizm sohasidagi bilimlarni boyitadi va bu hududdagi suv va biologik resurslardan samarali va oqilona foydalanishga asos bo'ladi.

Jizzax viloyati Zomin tumanida joylashgan Turnako'zli chashmalar orasida Sherbuloq bulog'i sayyohlar tashrif buyuradigan manzilgohlardan biridir. Atrofi toshdan yasalgan zina va yo'lakchalardan iborat kichik g'or tubiga muzdek zilol suv sher boshi shaklini eslatuvchi toshdan sharqirab oqib tushadi. Shuningdek, bu yerlardagi arxeologik yodgorlik majmualari ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Shulardan biri, Zominsuvning o'ng qirg'og'ida joylashgan Oqtepa yodgorligi majmuasi bo'lib, X-XII asrlarga oid tarixiy buyumlar topilgan. 1987 yilda arxeologik tadqiqotlar olib borilgandan so'ng bu hudud Zomin tumani milliy bog'



hududida muhofaza etiladigan ob'ektlar qatoriga kiritilgan. Zomin mahalliy va xorijlik sayyohlarni doimo o'ziga jalb etib kelgani bois, bugungi kunda bu yerda ekoturizm yo'nalishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'rikli soy sharsharasi, yoshi 1000ga yaqinlashgan "Boboyong'oq" daraxti, "Qirq qiz" kabi tabiat yodgorliklari sayyohlarni cheksiz hayratga soladi[8]. Viloyatda 5 ta o'rmon xo'jaligi va 1 ta milliy tabiat bog'i mavjud bo'lib, o'rmonlarning umumiy yer maydoni 247875 gektarni tashkil etadi. Bu hududda asosiy qismi o'rmon bilan qoplangan maydon 94903, madaniy o'rmonzorlar 15800 gektardan iborat. Mahalliy va xorijiy sayyohlarning tashrifi davomi 1000 yoshli archa, 700 yoshli boboyong'oq, Zomin sanatoriysi, Sherbuloq, supa, Mix qal'asi, sharshara, Chortangi darasi kabi tarixiy, arxeologik, geografik, ekologik joylar qiziqtirishi tabiiy.

Xulosa: Jizzax viloyatining tabiiy obyektlarini samarali turizm manbaiga aylantirish uchun ekologik toza turizmni rivojlantirish, tog' va cho'l sport turlarini ommalashtirish, agro va gastronomik turizmni targ'ib qilish hamda zamonaviy marketing yondashuvlaridan foydalanish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi, balki viloyatning tabiiy merosini saqlashga ham xizmat qiladi. Jizzax viloyati o'zining betakror tabiiy obyektlari bilan ekoturizm, tog' turizmi, sport va madaniy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Ushbu obyektlardan samarali foydalanish turizm infratuzilmasini yaxshilash, ekoturistik yo'nalishlarni yaratish va sayyohlik xizmatlarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning Jizzax viloyati tashrifi Jizzax viloyatini har tomonlama rivojlangan hududga aylantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar. // // Xalq so'zi, 2025 yil 3 dekabr. № 252 (9147).

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 7 oktyabrdagi "Zomin davlat qo'riqxonasi hududiy kengaytirish va uni qo'riqlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 498-son qarori.

3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, J-harfi. 2000-yil 136-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.

4. Ergashev T. Zomin ohanrabosi. // Xalq so'zi, 2018 yil 28 iyul, №155 (7113).

5. Abdusattor Sodiqov. O'rikli soy ertagi. Zomin milliy tabiat bog'i darvozasidan keyingi sarguzashtlar// Yangi O'zbekiston gazetasi. 2025-yil 27-fevral, №41 (1367).

6. Jizzax viloyat arxivi. F-208. 1-ro'yxat. 13-jild. 5-varaq.

7. Toyloqov A., Berdiyeva D. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi tabiiy resurslarni ekoturizm va baliqchilikni rivojlantirish maqsadida zamonaviy usullar yordamida baholash // Ekologiya axborotnomasi, 6-son, 2019.-B 36.





8. Ergashev T. Zomin ohanrabosi. // Xalq so'zi, 2018 yil 28 iyul, №155 (7113).

9. Muminov, A. Z. (2018). DEVELOPMENT OF ECOLOGIC TOURISM IN UZBEKISTAN. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(3), 123-126.

10. Babajanova, D., Isakov, B. N., Tilabaev, S. B., & Muminov, A. Z. (2022). Interaction of Tourism Development in Uzbekistan with Types of Historical and Cultural Monuments. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1730-1739.

